



UDK:619:636.2:616.33:616.084

## SIGIRLARDA KATTA QORIN ASIDOZINING SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORALARI (TAHLIL NATIJALARI ASOSIDA)

Ilmiy rahbar: V.f.n.p.B.Bakirov.

Magistrant: Yangiboyev.B.

Samarqand Veterinariya Meditsinasi, Chorvachilik va Biotexnologiyalari Universiteti.

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada **Javohir chorva fermer xo'jaligidagi** sigirlarda katta qorin asidozining sabablari, davolash va oldini olish choralari bo'yicha birinchi ilmiy tadqiqot natijalarining qisqacha mazmuni berilgan.

*Kalit so'zlar:* Asidoz, qora-ola, golshtin, simmental, shvits, qizil cho'l gemoglobin, eritrosit, leykosit, glyukoza, umumiy oqsil, infuzoriya, PH, bakteriya, kletchatka, kraxmal,

**Mavzuning dolzarbligi:** Prezidentning 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, O'zbekistonda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026 yillarga mo'ljallangan dastur hamda dasturda belgilangan vazifalarni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining "**Veterinariya fidoyisi**" va "**Chorvachilik fidokori**" ko'krak nishonlarini ta'sis etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi. Qo'mitaga bir oy muddatda "Veterinariya fidoyisi" va "Chorvachilik fidokori" ko'krak nishonlari to'g'risidagi nizom loyihalarini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatildi.

Oxirgi yillarda qoramolchilikni fan yutuqlari va ilg'orlar tajribalar asosida rivojlantirish maqsadida naslchilik ishlari, ozuqa bazasini mustahkamlash va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda qoramollar zotini yaxshilash, genofondini boyitish va saqlash muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham oxirgi yillarda dunyo genofondiga xos xo'jalik foydali belgilari bilan boshqa zotlardan keskin farq qiladigan qora-ola, golshtin, simmental, shvits hamda qizil cho'l kabi zotlar mamlakatimizning turli hududlariga xorijdan keltirilmoqda. Joylarda qoramolchilikka ixtisoslashgan zamonaviy fermer xo'jaliklari bunyod etilmoqda. Adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kungacha. Kasallikning tarqalishi, sabablari, kasallikni ertachi aniqlash, davolash va oldini olishning samarali usullari ishlab chiqilmagan. Bu o'z navbatida arzon mahalliy vositalardan foydalangan



holda kasallikni davolash va oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb muammolardan ekanligini izohlaydi.

Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman Talliyulg'un MFY ga qarashli “**Javohir chorva fermer**” xo'jaligidagi sigirlarda katta qorin asidozining kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish, kasallikka chalingan sigirlarni davolash, kasallikni oldini olish choralari ishlab chiqish, hayvonlar mahsuldorligini oshirish hamda davlat standartlariga mos ravishda aholiga sifatli sut va sut mahsulotlarini yetkazib berishga qaratilgan chuqur amaliy ishlar olib borilmoqda.

**Katta qorin atsidozi** (Acidosis ruminis) - katta qorin suyuqligi muhitining kislotalik tomonga o'zgarishi oqibatida paydo bo'ladigan kasallik. Ko'pincha sut kislotali atsidoz kuzatiladi. Bu kasallikning elib chiqish sabablari esa hayvonlarga ko'p miqdorda suli, arpa, bug'doy, makka so'tasi, qand lavlagi, kartoshka, tarvuz va olma kabi shirali oziqalarning berilishi kasallikning asosiy sabablari hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar davomida dastlabki tekshirish natijalari quyidagicha olib borildi.

Buning uchun kasallikka gumon qilingan 10 bosh sigirlarni alohida ajratib olib, mahsus xonaga joylashtirildi. Sigirlarning har biridan qon va oshqozon suyuqligi namuna sifatida olinib Samarqand Veterinariya Meditsinasi, Chorvachilik va Biotexnologiyalari Universiteti “Ichki yuqumsiz kasallilari” kafedrasining gematologiya laboratoriyasiga morfologik va biokimyoviy tahlil o'tkazildi.

Bunda qonning: gemoglobin va glyukoza miqdori, eritrositlar va leykositlar soni va umumiy oqsil ko'rsatgichlari aniqlandi.

Oshqozon suyuqligini esa muhiti(PH), infuzoriyalar soni va infuzoriyalar tur tarkibi tekshirildi

Tekshirilgan qon tahlil natijalari quyidagicha:

T/r	Gemoglobin	Eritrosit	Leykosit	Glyukoza	Umumiy oqsil
1	103 g/l	6,1mln/mkl	8,1ming/mkl	2,8mol/l	75,9g/l
2	92 g/l	4,7mln/mkl	12,5ming/mkl	2,2 mol/l	60,7 g/l
3	91 g/l	4,5mln/mkl	13 ming/mkl	2,1 mol/l	66 g/l
4	100 g/l	5,9mln/mkl	9,7 ming/mkl	2.4 mol/l	64 g/l
5	98 g/l	5,4mln/mkl	11,1ming/mkl	2,6 mol/l	66 g/l
6	109 g/l	6,4mln/mkl	10,4ming/mkl	2,8 mol/l	71,5 g/l
7	100 g/l	6,0mln/mkl	9,6 ming/mkl	3,0 mol/l	74,2 g/l
8	96 g/l	5,9mln/mkl	11,5ming/mkl	2,6 mol/l	75,9 g/l
9	90 g/l	5,7mln/mkl	8,6 ming/mkl	2,1 mol/l	68,4 g/l
10	94 g/l	6,2mln/mkl	9,1 ming/mkl	2,7 mol/l	62.5 g/l



Katta qorin ovqat hazmlanishida ko'p ahamiyatga ega bo'lib, unda kletchatka hazm shirasi fermentlarisiz mikroorganizmlar ta'sirida parchalanadi. Kavshqaytaruvchi hayvonlar katta qorinda katta miqdorda anaerob mikroorganizmlar: bakteriyalar, infuzoriyalar, zamburug'lar bor. Bakteriyalarning umumiy miqdori 1 gr, katta qorin oziqasida 100 mlrd. gacha, infuzoriyalar esa 1 mln. gacha bo'ladi. Me'daoldi bo'lmalarida sut achituvchi, sellulozani parchalovchi bakteriyalar, streptokokklar va boshqa mikroblar bo'ladi. Katta qorinda sodda hayvonlardan infuzoriyalarning 100+ turi bo'lib, ular katta qorindagi hazmlanish jarayonida muhim biologik ahamiyatga ega. Ular oziqaga mexanik ishlov bergan holda oziqa zarrachalarini parchalab, oziqani bakteriya fermentlari ta'siriga tayyorlab beradi. Infuzoriyalar oqsillarning, qisman kletchatka, kraxmalni hazm qilib, o'z tanasining oqsil va glikogenini to'playdi. Katta qorinda oziqa hazmlanishida bakteriyalarning, asosan, sellulozani parchalovchi bakteriyalarning ahamiyati kattadir.

Katta qorin suyuqligini aniqlashda ko'zlangan maqsad muhiti(PH), infuzoriyalar soni, infuzoriyalar tur tarkibini tekshirish va fiziologik ko'rsatgichlar bilan taqqoslash hamda kelib chiqqan muammoni o'z vaqtida bartaraf etish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oshqozon suyuqligining tahlil natijalari quydagicha:

T/	Infuzoriyalar soni	Muhiti (PH)	Infuzoriyalar tur tarkibi
1	360 ming/mol	6,6	5ta
2	310 ming/mol	6,5	7 ta
3	290 ming/mol	6,3	5 ta
4	340 ming/mol	6,6	8 ta
5	336 ming/mol	6,4	6 ta
6	362 ming/mol	6,7	8 ta
7	308 ming/mol	6,6	7 ta
8	324 ming/mol	6,8	5 ta
9	304 ming/mol	6,3	8 ta
10	327 ming/mol	6,7	6 ta

**Xulosa** Adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kungacha respublikamizda sigirlarda katta qorin asidozi kasalligining kelib chiqishi sabablari, davolash va oldini olish chora tadbirlari to'liq o'rganilmagan. Shu sababli chorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida kasallikni davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. Ushbu kasallikni keltirib chiqadigan iqtisodiy zarari tufayli mavzuni o'rganish dolzarb sanaladi.

**Adabiyotlar**





1. B.B.Bakirov, P.B.Boboyev «Hayvonlarning ichki yukumsiz kasalliklari» Samarqand, 1993 i.
2. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev B.M. Hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Toshkent , 2007.
3. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev B.M. Hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, 2010
4. Safarov M.B., Raxmonov A.O. «Umumiy diagnostika». Klinik diagnostika fanidan uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2006.
5. R.X.Xaitov, B.Z.Zaripov, Z.T.Rajamurodov. Hayvonlar fiziologiyasi (darslik). T. 2005.
6. R.X.Xaitov, M.A.Abdullaev. Qishloq xo'jalik hayvonlarining patologik fiziologiyasi. Toshkent, O'qituvchi, 1980 yil.

#### **Internet saytlari**

1. <https://lex.uz>
2. <https://Library.Samdu.uz>
3. [Uz.m.wikipedia.org](https://Uz.m.wikipedia.org)
4. <https://e-library.namdu.uz>